

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN BEZORILIK

JINOYATLARIDA JINOYATCHI SHAXSI VA UNING BELGILARI

Valiboyev Izzatbek To‘xtasin o‘g‘li

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura talabasi

email: izzatbekvaliboyev22@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14288427>

Kirish. Ma’lumki, o‘sib kelayotgan yosh avlod har bir millatning tayanchi hamda kelajakdaki poydevori hisoblanadi. Rivojlanayotgan texnologiyalar asrida yashayotgan ekanmiz bizdan oldin yashab o‘tgan avlodga nisbatan bizda yuqori darajada zamonaviy imkoniyatlar paydo bo‘layotgani va mazkur imkoniyatlardan ijobiy tarzda foydalanishimiz orqali har qanday sohada insoniyat ko‘plab yutuqlarga erishayotgani hech kimga sir emasdir. Shu bilan birga, inson qo‘l mehnatini texnika egallayotgani hayotni oson suratda kechirishga olib kelmoqda. Qolaversa, rivojlanayotgan texnologiyalar bizning hayotimizni osonlashtirayotgani buning natijasida insonda harakatchanlik xususiyati tobora kamayib borayotgani ma’lum va ravshandir. Shuningdek, zamonaviy sivilizatsiya taqdim etgan imkoniyatlardan besamar foydalanish o‘z navbatida ko‘ngilsiz hodisalar sodir bo‘lishiga qolaversa jinoyatchilikning ortib borishiga turtki bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, voyaga yetmagan shaxslarda taqlidchilik xususiyati yuqori bo‘lishi tabiiy holat hisoblanadi. Lekin hissiyotlarni boshqara olmaslik, mashaqqatli mehnatsiz oson tarzda boyib ketishni o‘z oldiga asosiy vazifa deb bilish va boshqa nosog‘lom hayot muhitida ulg‘aygan shaxslarga ko‘r-ko‘rona ergashib ketaverish natijasida jamiyatga hamda oilaviy holatga jiddiy zarar yetmoqda.¹ Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarni foydali mashg‘ulotlarga jalb etmaslik, ularning bo‘sh vaqtлari ko‘proqligi va huquqiy madaniyatning yetarli¹ darajada shakllanmaganligi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishiga yordam bermoqda. So‘ngi yillarda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar soni oshib borayotgani insoniyatni xavotirga solmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2023-yilda 3600 nafar voyaga yetmagan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilganligi aniqlangan. Mazkur ko‘rsatkich, oldingi besh yil davomidagi sodir etilgan jinoyatlar ko‘rsatkichidan 4.4 barobarga oshganini ko‘rsatmoqda. Yil davomida voyaga yetmaganlar tomonidan tovlamachilik 70%, bezorilik 60%, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish 40%, nomusga tegish va odam o‘ldirishga urinish jinoyatlari 20% ko‘paygani ma’lum qilingan. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar eng ko‘p 700 nafari Farg‘ona viloyatiga to‘g‘ri

¹ISSN: 3030-377X Sardor Suvanov Toshkent Davlat Yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi Toshkent viloyat ma’muriy sudining sudyasi. “VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN BEZORILIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK JIHATLARI” ISSUE 14, Volume1 15 May, 2024 <https://science-shine.uz/index.php/ilrnuri/index>

kelgan. Keyingi o‘rinlarda, Toshkent shahri – 545, Namangan viloyati – 451, va Toshkent viloyati – 345 kishi. Eng past ko‘rsatkichlar Jizzax – 54, Navoiy – 62, va Xorazm – 66 nafar voyaga yetmagan shaxs qayd etilgan.¹

Muhokama va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining umumiyligida voyaga yetmaganlarga nisbatan javobgarlik masalalari mustahkamlangan bo‘lib, adolatlilik prinsipi bo‘yicha voyaga yetmagan shaxslar tomonidan ham sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish uchun jinoiy-javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan.¹ Shuningdek, voyaga yetmagan shaxslarning jinoiy javobgarligi va ularga nisbatan jazo choralarini qo‘llanilishi jinoyat qonunchiligining ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Qolaversa, mazkur javobgarlik belgilovchi huquqiy normalar adolat, insonparvarlik, qonuniylik va bu kabi boshqa prinsiplar harakatga kelishiga huquqiy asos bo‘ladi.^{1 2}

Shuningdek, bezorilik jinoyati – jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyat bo‘lib, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik orqali sodir etiladigan harakat natijasida shaxsni urish-do‘pposlash, unga yengil tan jarohati yetkazish va o‘zga shaxsnинг mulkiga ancha miqdorda shikast yetkazish hamda nobud qilish bilan amalga oshiriladigan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi. Bezorilik jinoyatining *asosiy bevosa* obyekti sifatida jamoat tartibini ta’minlovchi munosabatlar hisoblanadi. Mazkur jinoyatning *qo’shimcha bevosa* obyekti shaxsning sog‘lig‘i, jismoniy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmati shuningdek o‘zganing mulk xavfsizligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Obyektiv tomonidan olib qaraganda bezorilik jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish natijasida ancha miqdorda zarar yetkazishda aks etadi. Shuningdek, bezorilik jinoyati obyektiv tomonining muqarrar belgisi jamiyatda yurish-turish qoidalarini buzish orqali urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish va o‘zganing mulkini nobud qilish hamda shikast yetkazish o‘rtasidagi aloqa hisoblanadi.¹

Shu bilan birga, subyektiv tomonidan bezorilik *to‘g‘ri qasd* bilan sodir etiladigan xatti-harakatdir. Bezorilik jinoyatini sodir etgan aybdor shaxs jamoat tartibini buzayotgani, ushbu hodisa natijasida o‘zga shaxsni yoki hokimiyat vakilini urib do‘pposlayotgani, badanga yengil

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi info@stat.uz <https://www.stat.uz/uz/>

² ISSN: 2181-1784 Sattorova Muharram Abdurazzoqovna Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi mudiri “VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” ISSUE 11, Volume 2, November 2022 <https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-jinoyatchiligining-o-ziga-xos-xususiyatlari/viewer>

shikast yetkazayotgani va o‘zganing mulkini nobud qilayotgani hamda shikast yetkazayotganini anglab yetadi yoki amalga oshirishni istagan bo‘ladi. Mazkur jinoyatning motivi bezorilik ya’ni jamiyatga ochiqdan-ochiq hurmatsizlik motivi tarzida ayblanuvchi o‘zini atrofdagilarga qarshi qo‘yishda, o‘zining alohida shaxsiyatini namoyon qilishda hamda dag‘al kuchni ko‘rsatishda aks etadi. Ushbu holatda jinoiy harakat qanday predmetga qaratilganligi va qaysi munosabatlar tizimida amalga oshirilayotganligi³ ahamiyatga ega emas hisoblanadi. Bezorilikning maqsadi dag‘al zo‘rlik ishlatish yo‘li bilan jabrlanuvchini esankiratib qo‘yish, uning irodasini sindirish va uni o‘z hukmiga o‘tkazish holatida yuzaga keladi. Shuningdek, bezorilik jinoyatlarida jinoyatchi shaxsi va uning belgilari haqida muhokama qilib o‘tadigan bo‘lsak, har qanday jinoiy harakatlarda jinoyat subyekti jinoyat tarkibining zaruriy elementlaridan biri bo‘lib, ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan qonunga ko‘ra jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan shaxs hisoblanadi. Jinoyat subyektini tavsiflovchi belgilar quyidagilarda namoyon bo‘ladi: a) jismoniy shaxs ekanligi, aqli rasoligi va jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyat sodir etish yoshiga to‘lganligi.¹

Jinoyatning subyekti haqida bir qator olimlar o‘zlarining fikrlarini aytib o‘tganlar. M.Usmonaliyev tomonidan jinoyatning subyekti ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan, qonunga muvofiq ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan shaxs ekanligi ta’kidlanadi. Ayrim olimlar jinoyatning subyekti jinoyatchi shaxsini aniqlashtirib beradigan mezon sifatida qaraladi deb hisoblaydilar. V.G.Pavlov esa **jinoyat subyekti** tushunchasi jinoyat qonunida ifodalab berilgan aniq fikr-mulohazalarga asoslanishi va falsafiy hamda jinoyat-huquqiy nazariyalarning metodologik asoslaridan kelib chiqqan bo‘lishi lozimligi haqida ta’kidlaydi. JK 17-moddasi birinchi qismida jinoyat sodir etgunga qadar o‘n olti yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortilishi belgilangan bo‘lib, subyektni xarakterlovchi ijtimoiy-ruhiy belgining ham aniqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat subyektining asosiy zaruriy belgilaridan biri sifatida shaxsning aqli rasoligi hisoblanadi.¹ Jinoiy javobgarlikka faqat zarur tafakkur va iroda sifatlariga ega, tashqi olam hodisalarini ongli qabul qiluvchi, o‘z xatti-harakatlarini tanqidiy baholay oladigan, jamiyatda o‘zini tutish qoidalari bilan⁴ belgilab qo‘yilgan talablarni tushunadigan shaxs javobgarlikka tortilishi mumkinligi nazariy adabiyotlarda mustahkamlangan.¹

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yuridik fanlari doktori professor Rustambayev Mirzayusup Xakimovich tomonidan bezorilik jinoyatining motivida bezorilik jinoyati sodir

¹ ISBN 978-9943-332-24-9 Jinoyat huquqi. Darslik / © M.X.Rustamboyev; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2007. 656 bet.

¹ © Матмуратов Б.Д ISBN 978-9943-5075-0-0 О‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi toshkent davlat yuridik universiteti B.D.Matmuratov Jinoyat tarkibi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish masalalari (umumiyl qism) “LESSON PRESS” Toshkent – 2019.

etishga uringan shaxs o‘zini jamoatchilik fikriga qarshi qo‘yishga, ko‘z o‘ngida jamiyatda birga yashash qoidalarini, axloq va ma’naviyat normalarini mensimasligini o‘ziga ma’lum yoki boshqacha shaklda namoyish qilish, alkogol mahsulotlarini iste’mol qilgan holatda yuzaga keladigan noo‘rin shaklda (shirakayf) “botirlik”, “erkak”ni yuklatilgan mas’uliyatiga loqaydlikni ko‘rsatish, jabrlanuvchini qo‘rqitish, haqorat qilish va shu kabi harakatlar yuzaga kelishi haqida ta’kidlab o‘tiladi.¹ Shuningdek, JK 277-moddasi ikkinchi qism b) bandida nazarda tutilgan (bir guruh shaxslar tomonidan bezorilik xatti-harakatini sodir etilish) harakat xususiyati haqida yuridik fanlari doktori professor Rustambayev M.X tomonidan quyidagicha ta’rif berib o‘tiladi. “Bir guruh shaxslar tomonidan sodir qilingan bezorilik birga bajaruvchilik bo‘lib, birga harakat qiluvchi shaxslar mazkur jinoyatning obyektiv tomonini bevosita bajarishlari, lekin birmalikda ishtirok etish avvaldan kelishib olingen bo‘lmasligi va ushbu holatda odatda ishtirokchilar bezorilik harakatlarini sodir etayotgan shaxsga kelib qo‘shilishlari haqida ta’riflanadi”.¹ Bezorilik xatti-harakatlarida jinoyat subyekti JK 17-moddasiga muvofiq, o‘n olti yoshga to‘lgan aqli raso jismoniy shaxs hisoblanadi. Agar JK 277-moddasi ikkinchi, uchinchi qismlarida ko‘rsatilgan harakatlarni o‘n olti yoshga to‘limgan shaxslar tomonidan sodir etilgan taqdirda ularga mazkur normada belgilangan javobgarlik choralar qo‘llanilishi JK 17-moddasida nazarda tutilgan. Bezorilik harakati jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyat hisoblanib, buning sodir etilishi natijasida fuqarolar sog‘lig‘iga va mol-mulkka jiddiy zarar yetkaziladi. Ayni vaqtda mamlakatimizda bezorilik jinoyati⁵ bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilayotgani, xususan, mazkur harakatlarda voyaga yetmaganlarning ishtiroki borligi haqida ommaviy axborot vositalarida ma’lumotga ega bo‘lmoqdamiz. Mazkur xatti-harakatlar asosan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan ota-onalarni yestarliche emasligi, oilada totuvlikning yo‘qligi va jinoyatga jazo muqarrarligi hamda jinoyat sodir etilgandan so‘ng yuzaga keladigan huquqiy oqibatlar haqida voyaga yetmagan shaxslar tomonidan ma’lumotlarga ega emasliklari jinoyatchilikning oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Xulosa. Yuqoridagilarga asoslanib umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, bezorilik jinoyati o‘zida salbiy oqibatlarni mujassam etuvchi jamiyat va fuqarolarning shaxsiy daxsizligiga ziyon beruvchi harakatlarni sodir etishga undaydigan xatti-harakat hisoblanadi. Qolaversa, hukumatimiz tomonidan yoshlarga yaratib berilayotgan keng miqyosli shart-sharoitlarga qaramasdan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish holatlari ortib borishi jinoiy javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish hamda voyaga yetmaganlarni jinoyat sodir etishga undayotgan sabablarni barvaqt oldini bo‘lish

¹ ISBN 978-9943-332-24-9 Jinoyat huquqi (Maxsus qism). Darslik / © M.X.Rustamboyev; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2007. 656 bet.

bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar olib borilishini taqozo etmoqda. Shuningdek, jinoyat vaqt, makon va yosh tanlamasligi hammamizga ma’lum, shunday ekan boshlang‘ich yoshdagi avlodga jinoyatning salbiy tomonlari hamda oqibatlari haqida muntazam ravishda axborot berib borilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur harakatlarni multfilm ko‘rinishida yosh avlodga ma’lumot taqdim etish hamda o‘siprin yoshdagi fuqarolarga hujjatli film ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan bezorilik jinoyatlarida jinoyatchi shaxsi va uning belgilari haqida muhokama qilib o‘tdik.

REFERENCES

Rasmiy elektron manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi info@stat.uz

Darsliklar:

1. ISBN 978-9943-332-24-9 Jinoyat huquqi. Darslik / © M.X.Rustamboyev; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2007. 656 bet.
2. © Matmuratov Б.Д ISBN 978-9943-5075-0-0 O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi toshkent davlat yuridik universiteti B.D.Matmuratov Jinoyat tarkibi bo‘yicha kvalifikatsiya qilish masalalari (umumiy qism) “LESSON PRESS” Toshkent – 2019.
3. ISBN 978-9943-332-24-9 Jinoyat huquqi (Maxsus qism). Darslik / © M.X.Rustamboyev; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: «Adolat», 2007. 656 bet.

Ilmiy maqolalar:

1. ISSN: 3030-377X Sardor Suvanov Toshkent Davlat Yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi Toshkent viloyat ma’muriy sudining sudyasi. “VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN BEZORILIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK JIHATLARI” ISSUE 14, Volume 1 15 May, 2024
2. ISSN: 2181-1784 Sattorova Muharram Abdurazzoqovna Toshkent shahar yuridik texnikumi jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi mudiri “VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” ISSUE 11, Volume 2, November 2022

Internet manzillari:

info@stat.uz

<https://library-tsul.uz/>

<https://science-shine.uz/index.php/ilmnuri/index>

2024

DECEMBER

NEW RENAISSANCE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

VOLUME 1 | ISSUE 10

<https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlar-jinoyatchiligining-o-ziga-xos-xususiyatlari/viewer>